XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHI
QAROR

210300, Zarafshon sh., Marvarid ko‘chasi 1

2023 - yil 29 - dekabr VI-73-177-5-78-K/23 Zarafshon shahar hokimligi

Zarafshon shahrining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, inobatga olib, xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga *(keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi)* muvofiq, Zarafshon shahrining shahar mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 71 427 300,0 ming.so‘m, xarajatlari 207 769 506,0 ming.so‘mga tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Zarafshon shahrini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkich prognoz mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2024-yil uchun shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

- 2024-yil uchun shahar budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

- 2024-yil uchun shahar budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha shahar mahalliy budjeti bilan shahar budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Zarafshon shahar bo‘yicha G‘aznachilik bo‘limi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

5. 2024-yil uchun shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2024-yil uchun shahar budjetidan shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini shahar mahalliy budjetlari

daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun shaharning shahar budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 878 832 ming.so‘m miqdorida belgilansin.

Shahar budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

2024-yil uchun shaharning shahar budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 925 027,0 ming.so‘m hamda shahar budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

8. O‘zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2024-yil xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

b) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 25-oktyabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab;

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman(shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun shahar budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 18 007 520,0 ming.so‘m mablag‘ rejalashtirish belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Shoxmirzayev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (N.Xolov), Zarafshon shahar Davlat soliq inspeksiyasi (Z.Shomurodov)ga shahardagi mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon hamda kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetning prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Shahar Davlat soliq inspeksiyasi (Z.Shomurodov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini

olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

Shaharda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

12. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvatlash bo‘limiga jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

13. Xalq deputatlari shahar Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga, natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

14. Shahar hokimligi:

Shahar budjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda shahar xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar hokimlik rasmiy veb-saytlariga yuklab borilsin.

15. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Shoxmirzayev), xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati, tegishli tashkilot rahbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

16. Shahar hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

17. Mazkur qaror “Oltin vodiy” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

18. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

19. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda shahar hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **N. Rahmanov**

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-177-5-78-K/23-son qaroriga
1-ilova

Zarafshon shahrining 2024-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz koʻrsatkichlari

№	Koʻrsatkichlar	2024-yil uchun prognoz	Moʻljal	
			2025-yil	2026-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, trln.soʻmda			
2.	Yalpi hududiy mahsulotning oʻsish surʼati, foizda			
3.	Sanoat mahsulotlarining oʻsish surʼati, foizda	113,0	114,2	115,0
4.	Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaliklarida ishlab chiqarishning oʻsish surʼati, foizda	105,8	105,4	105,5
5.	Xizmatlar koʻrsatishning oʻsish surʼati, foizda	122,0	116,7	116,5

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-177-5-78-K/23-son qaroriga
2-ilova

Zarafshon shaharning shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming. so`m

№	Daromad turi	miqdori
	Jami daromadlar	**71 427 300**
I.	**Rag‘batlantiruvchi (Стимулирующие) daromad**	**51 432 300**
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*571 470 000*
	Ajratma me’yori	***9***
1.	mahalliy budjetga	51 432 300
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	*12 148 000*
	ajratma me’yori	
2.	mahalliy budjetga	
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**19 995 000**
	Tuman va shaharlarga biriktirilgan	**6 738 000**
1.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ИТД)	
2.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1 859 000
3.	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	30 000
4.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 849 000
	Viloyat va tuman (shahar)lar byudjetlari o’rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**13 257 000**
1.	Aylanmadan olinadigan soliq	9 251 000
	ajratma me’yori	
	mahalliy budjetga	
2.	Benzin, dizel yoqilg’isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	12 297 000
	ajratma meyori	
	mahalliy budjetga	
3.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 052 000
	ajratma me`yori	***100***
	mahalliy budjetga	13 052 000
4.	Yuridik shaxslar yer solig‘i	7 223 000
	ajratma me`yori	
	mahalliy budjetga	
5.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	205 000
	ajratma me’yori	***100***
	mahalliy budjetga	205 000
6.	Ijara to‘lovlari	213 000
	ajratma me’yori	
	mahalliy budjetga	
7.	Yig‘imlar	4 011 000
	ajratma me`yori	
	mahalliy budjetga	
	Viloyat byudjetiga	
1.	Davlat bojlari	5 159 000
	ajratma me’yori	
	mahalliy budjetga	
2.	Davlat tashkilotlari foyda solig‘i	37 000
	ajratma me’yori	
	mahalliy budjetga	
3.	Jarimalar	3 978 000
	ajratma me’yori	
	mahalliy budjetga	
4.	Xususiylashtirish	
	ajratma me’yori	
	mahalliy budjetga	
5.	Boshqa tushumlar	
	ajratma me’yori	
	mahalliy budjetga	
III.	**Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo’yicha)**	**14 960 266**
	Aholi soni (ming kishi)	*87 328*
14.	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	6 484 788
15.	Tamaki mahsulotlariga aksiz solig‘i	5 863 392
16.	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	2 612 086
	Ma’lumot uchun: 2023 yil parametr	*79 623 633*

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-177-5-78-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun Zarafshon shaharning shahar budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming. so`m

Ko‘rsatkichlar		
		miqdori
	Xarajatlar - jami	**207 769 506**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**128 412 881,0**
	shu jumladan:	
1.1	**Маориф**	**33 452 998,0**
	- maktabgacha ta’lim	17 599 866,0
	- umumiy ta’lim	15 853 132,0
	- kadrlar tayyorlash	
1.2	Sog‘liqni saqlash	83 408 147,0
	shundan: Davlat tibbiy sug’urtasi jamg’armasiga transfertlar	
1.3	Madaniyat	2 444 377,0
1.4	Sport	9 017 258,0
1.5	Fan	
1.10	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	10 500,0
1.14	Fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash	
1.15	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	79 601,0
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**36 596 261,0**
	shu jumladan:	
2.1	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4000 000,0
2.2	O‘simliklar karantini inspeksiyalari xarajatlari	
2.3	Obodonlashtirish	30 503 974,0
2.4	Ko‘p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish xarajatlari	
2.4	Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	
2.8	Issiqlik ta’minot korxonalariga subsidiyalar	
2.9	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	
2.10	O‘rmon xo‘jaligi tashkilotlari	
2.11	Biologik va agrokimyo laboratoriya stansiyalari xarajatlari	
2.12	Qishloq xo‘jaligi vazirligining hududiy bo‘linmalarida yer tuzish va monitoring vazifalari yuklatilgan xodimlarni saqlash xarajatlar	
2.13	Davlat ekologiya qo‘mitasining hududiy boshqarmalari	
2.14	Fermerlar buxgalteriyasini saqlash xarajatlari	
2.15	Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasining hududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari	
2.17	Veterinariya qo‘mitasi	1 593 987,0
2.18	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	
2.19	Avtobus yo‘nalishlarini subsidiyalash	
2.20	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	498 300,0
3.	**Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar**	
3.1	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar (boshqa hukumat qarorlari asosida ajratilgan mablag‘lar)	
3.3	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.4	Umumta’lim maktablarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.5	Sog‘liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.8	Melioratsiya obyektlari	
4.	**Davlat markaziy hokimiyat organlari**	
5.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**22 874 012,0**
6.	**Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini saqlash**	
7.	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	
8.	**Zaxira jamg‘armasi**	**1 878 832**
9.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**18 007 520**
9.1	*Tashabbusli budjet tadbirlari*	*18 007 520,0*
10.	**Boshqa xarajatlar**	
	shu jumladan:	
10.1	Qabul uylari	
10.3	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	
10.5	Mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar	

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-177-5-78-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024-yilda umumdavlat soliqlaridan shahar mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/r	Hudud nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq
1	Zarafshon shahar	100	100	9	100	100

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-177-5-78-K/23-son qaroriga
5-ilova

Shahar mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so`mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Zarafshon shahar	71 427 300	207 769 506

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-177-5-78-K/23-son qaroriga
6-ilova

Shahar mahalliy budjetining 2024-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so`mda

T/r	Hudud nomi	Tartibga soluvchi transfert miqdori	*Shundan; aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar*
1	Zarafshon shahar	136 342 206,0	14 960 266,0

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-177-5-78-K/23-son qaroriga
7-ilova

Shahar mahalliy budjetining 2024-yilda shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Zarafshon shahar	925 027,0